



**“ALPOMISH” VA “ODISSEYA” DOSTONLARI YUZASIDAN
MULOHAZALAR**

Sonniboyev Olim Nodirovich

*SamDCHTI, qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrası
tadqiqotchisi*

Annotatsiya: *ushbu maqolada “Alpomish” va “Odisseya” dostonlari badiiy talqini masalasi tahlilga tortiladi. Har ikki doston epik an'analar va mifologik tasavvurlar asosiga qurilgan bo'lib, unda qahramonlarning aql-zakovati, jasorati, sabr-toqati, irodasi afsonaviy va realistik talqinda namoyon bo'ladi. Maqolada qahramonlar xarakterining oddiy va murkkab tomonlari, o'xshash va farqli jihatlari ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *“Alpomish”, “Odisseya”, obraz, epik talqin, qahramonlik motivi, tarixiylik va milliylik.*

“Alpomish” va “Odisseya” dostonlari necha ming yillik tarix sahnida yaratilgan insoniyat badiiy tafakkurining bebaho namunalari. “Odisseya” dostoni antik davrda yaratilgan bo'lsa, “Alpomish” turkiy xalqlar og'zaki ijodining ming yillik tarixga ega qahramonlik eposidir. “Odisseya”da Troya urushidan so'ng Odisseyning vatani Itakaga borib yetguniga qadar 20 yillik boshidan o'tkazgan sarguzashtlari hikoya qilinsa, “Alpomish” dostonida esa Alpomishning el-yurt, vatan uchun olib borgan kurashi, sinovlardagi jasorati, mardligi, oilasiga sadoqati mubolag'ali tasvirlanadi.

Alpomish va Odissey obrazlarini aql-zakovat, fahm-farosat, favqulodda jismoniy kuchga egaligiga ko'ra qiyoslash mumkin. Bu qahramonlar o'zaro muqoyasa qilinganda, dostonlar sujetida ularning kurash va sinovlarda, jang-u jadallarda ko'rsatgan jasoratining silsilaviy tarzda o'sib borishi muhim hisoblanadi. “Alpomish” dostonida voqealar Hakimbekning tug'ilishidan boshlanadi. Otasi Boybo'ri uni xudodan (Yaratgandan) tilab oladi. Bunda xalqimizga xos milliylik – farzand ko'rish umidi, tug'ilgan farzandga ism qo'yish odatlari aniq ko'rinadi [Boybo'ri bilan Boysarining Shohimardon pir ravzasida 40 kun chillada yotishi, pining kelib bolalarga ism qo'yish epizodini eslang.] “Alpomish” dostonida Hakimbekning bolaligi - voyaga yetishi, oq-qorani tanishi, aql-zakovatda kattalarni shoshirib qo'yishi sifatleri epik an'analarni yuzaga chiqaradi. Shuningdek, shoh Boybo'ri bilan Hakimbekning saxiylik va baxillik haqidagi muloqoti talqinida milliylik yanada ayon bo'ladi. Alpomishning bahodirlik, mardlik sifatleri yetti yoshida namoyon bo'ladi: bobosi Alpinbiydan qolgan 14 botmon birinjdand bo'lgan yoyni ko'tarib, “alp” maqomini olishi va Asqar tog'i cho'qqisini uchirib yuborishi jang maydoniga kirmay odamlarni hayratda qoldiradi.





“Odisseya”da mardlik va jasorat boshqacha talqinga ega. Bu haqda Gereniya qahramoni Nestorning Odisseyning o‘g‘li Telemaxga “Odisseyga teng kelolmas edi hech kim aql-u idrokda: Janggohlarda doim ajib nayranglarni o‘ylab topardi” gapidan bilsa bo‘ladi. Troya urushida ishtirok etib, jasorat ko‘rsatadi, uning mardligi, harbiy mahorati haqida Odissey ma‘budlar ma‘budi Zevsni ham e‘tiborini tortadi. Bu haqda dostonning 1-qo‘shig‘ida Zevs tilidan quyidagi ta‘rif keltiriladi:

Buzruk Zevs o‘z qiziga shunday deya qildi e‘tiroz:

“Ko‘p alomat so‘zlar uchdi, qizim, sening dudoqlaringdan.

Nechun men ul tangri monand Odisseyni – bandalar ichra

Ham idroki, hamda boqiy tangrilarga ixlosmandligi

Ko‘l ziyoda bo‘lgan mashhur pahlavonni unutarkanman?

“Alpomish” dostonida Alpomish kuch-qudrati, jasorati yilqiboqar Qultoyni, Qorajonni, jang maydonida Ko‘kaldoshni, qalmoqshoh Toychixonning askarlariga bir o‘zining bas kelganligida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Hakimbekning yetti yoshga to‘lib Alpomish maqomini olishi esa uning jismonan baquvvat bo‘lganidan dalolat. Qahramonlik ko‘rsatib “alp” maqomini olishi xalq dostonlariga xos afsonaviy talqindir.

“Odisseya” dostoni Troya turkumi afsonalari asosida yaratilgan. Shu sabab doston badiiyatida realistik va mifologik tasvir uyg‘unlashib ketgan. Ushbu xususiyatidan kelib chiqib, Odissey obrazini Alpomishdan farqlash mumkin. Bunda Odisseyning bolaligi, voyaga yetishi haqida gap yo‘q. Doston sujeti Odisseyning shavkatli shoh, yengilmas sarkarda (yunon jangchisi) Troya urushi qahramoni sifatida e‘tirofi bilan boshlanadi. U jangda jasorat ko‘rsatib, hatto ma‘budalarni ham qoyil qoldirgan. Vatanidan olisda Odisseyning aql-idroki, irodasi, tadbirkorligi sarguzashtlarda ko‘rinadi. Odissey obrazida qahramonlik sifatlaridan ko‘ra uning aql-zakovati, epchilligi, tadbirkorligi ustun turadi. U turli balo-yu ofatlar qarshisida o‘limga bir necha bor yuzma-yuz keladi, yashash uchun, tirik qolish uchun kurashadi.

Dostonda voqelarni rivojlantirib turuvchi kuch ma‘budlardir. “Odisseya”da ma‘budlar doston voqealari boshidan oxiriga qadar ko‘rinadi. Boshqacha aytganda Odisseyning taqdirini ma‘budlar muhokama qiladi, qahramonlarni qo‘llab-quvvatlovchi ham boshiga og‘ir kunlarni soluvchi ham ular. Afina, Eos kabi ma‘budlar Odisseyni qo‘llasalar, Zevs va Poseydon unga qarshi turadilar.

Dostonda ma‘buda Afina Odissey va uning oilasining homiysi sifatida gavdalanadi. Ba‘zan Zevs ham Odisseyga xayrixoh, uni vataniga yetib borish tarafdori. Shamollar ma‘budi Eos Odisseyni vataniga yetib olishda katta yordam beradi. Ammo Poseydon bunday qilmaydi. Odisseyga eng katta xavf keltirgan dushman – bu dengiz xudosi Poseydon bo‘lsa, ikkinchidan saltanati va oilasiga rahna solgan Penelopaning oshiqlari





sanaladi. “Alpomish” dostonida Alpomishga xavf-xatar keltirgan bu Qalmoq shohi Toychixonning xizmatkori Surxayl maston edi. Alpomish uning o‘g‘illarini tor-mor qilgan, Surxayl ana shuning alamida Alpomishga turli balo-qazolarni ro‘para qiladi. Umuman olganda Boysunning bu pahlavonini o‘ldirish Surxaylning eng katta maqsadi deyilsa mubolag‘a bo‘lmaydi. Keyingi raqibi esa Ultontozdir.

Odissey tabiatidagi murakkabliklar, uning xatti-harakati, yurish-turishida ko‘rinadi. Odissey shijoatli, botir bo‘lishi bilan birga unda bobosiga xos quvllik, mug‘ombirlik xislatlari ham mujassam. U ana shu xususiyati bilan og‘ir vazyatlardan chiqib ketadi, duch kelgan qiyinchilik va g‘ov oldida esankirab qolmaydi. Uning eng katta xatosi, (og‘ir kechirib bo‘lmas, xudolar tomonidan la‘natga uchraydi) dengiz xudosi Poseydonning o‘g‘li bir ko‘zli Polifemni ko‘r qilib qo‘yishidir. Uning bu ishini Poseydon kechirmaydi, bundan u qattiq g‘azablanadi, natijada Odissey va uning hamrohlarini butun kemani to‘fonga duchor qiladi.

“Alpomish” dostonida Alpomish Odissey kabi og‘ir, kechirib bo‘lmas xatoga yo‘l qo‘ymaydi. Dostonda u o‘z aql-farosati bilan doim yurt, el-yurt manfaatlarini va oilasi sha‘ni uchun, or-nomus uchun kurashadi. Qalmoq shohi Boysarinining bor mol-mulkinini tortib o‘zini cho‘pon qilib qo‘yganini eshitgan Alpomish bunga chidashi qiyin bo‘ladi, o‘z amakisi, ya‘ni qaynotasi Boysarini qutqarish uchun qirq yigit bilan Qalmoqqa otlanadi. Bu o‘rinda Alpomish o‘zbek xalqiga xos or-nomus, vijdon, so‘nmas g‘urur ramzidir. Qayd etib o‘tilganidek, “Alpomish” dostonida Alpomishning jiddiy xatosi yoki kamchiligi ko‘rinmaydi. To‘g‘ri, dostonda Alpomish biroz jur‘atsizlik qilganligi, yoki jang maydonida biroz bo‘shashgan holati kuzatiladi, zindonga tushib qoladi, ammo ularda singlisi Qaldirg‘och, Barchinoy dalda bo‘ladi, yoki Boychibor yordamida oldidagi to‘siqlarni yengib o‘tadi. Alpomishning Odisseydan eng katta farqi ham shunda.

Xulosa qilib aytganda, ikki epos yunon va turkiy xalqlar tarixi, ijtimoiy-siyosiy va maishiy hayotidan darak beradi, shu bilan birga bu xalqlar madaniyati va qadriyatlarini o‘zida aks ettiradi, qahramonlik va sarguzasht motivi dostonlarni bir-biriga yaqinlashtiradi. Ammo “Odissey” va “Alpomish” dostonlari turli sivilizatsiyalar mahsuli, shu bois bu dostonlar kompozitsion va syujet xususiyatlari, obrazlar tizimi va badiiy poetik jihatlariga ko‘ra farqlanadi. Xususan, bosh qahramonlar obrazlarining o‘ziga xos qirralari borki, o‘z navbatida alohida tadqiqni talab qiladi.





Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alpomish: Xalq og‘zaki ijodi / “Alpomish” dostonlari turkumidan/ - Toshkent: “ZUKKO KITOBXON”, 2023. -576 b.
2. Алимухамедов А. Антик адабиёт тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1975. 415 б.
3. Жаббор Эшонкул. Фольклор, образ ва талкин. – Қарши: Насаф нашриёти 1999. -169 б.
4. Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение: Восток и запад. – Ленинград: Наука, 1979.
5. Сулаймонова Ф. Шарқ ва ғарб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997.
6. Xolmatov O. Qahramonlik eposlarida urush kishilari tasviri: obraz va talqin. So‘nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi: respublika ilmiy-uslubiy jurnali. B. 246-249
7. Хомер. “Одиссея”. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016.